

SHAFTOLI YETISHTIRISH VA SUG'ORISH TEXNOLOGIYASI**Quysinboyev Norqul***Samarqand agroinnovatsiyalar
va tadqiqotlar instituti magistri*

Annotatsiya. Ushbu maqolada danakli mevalardan shaftoli haqida so‘z yuritilgan bo‘lib unda asosan shaftoli yetishtirish agrotexnikasi va sug‘orish haqida ma’lumotlar keltirilgan

Kalit so‘zlar : Shaftoli, ekish sxemasi, shakl berish, terish, o‘g‘itlash, kasalliklar, sug‘orish.

Kirish. Respublikamizda qishloq xo‘jaligining barcha sohalarim, shu jumladan mevachilik va uzumchilikni jadal rivojlanтирish, tuproq umumдорligini ko‘tarish, meva va uzum hosildorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda ularni mavsumdan qashqari dayrda saqlash xalqimizni meva va uzum mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘la qondirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Respublikaning shaftoli mevasini yetishtirish uchun tuproq iqlim sharoitlarining qulayligi, serhosil va istiqbolli shaftoli navlarining mavjudligi, ulardan yuqori, mo‘lva sifatlari hosil olish imkoniyatini beradi.

Shaftoli (Persica mill) 6 turga bo‘linadi, ulardan asosiyлари quyidagilar: Jaydari shaftoli, Farg ona shaftolisi (anjir shaftoli), David shaftolisi, Mir shaftolisi va Mongol shaftolisi. Shaftoli Q‘zbekistonda o‘rikdan keyin ikkinchi o‘rinda turadigan danakli meva hisoblanadi. Tarkibida yuqori miqdorda shakar (7.3-14% gacha), turli kislotalar (0.33-0.95% gacha), pektin (0.002-1.17% gacha), oshlovchi moddalar (0.1% gacha) hamda vitaminlar (A va C) uchraydi. Shaftoli navlari 2 gunuhga bo‘linadi: ya’ni mevasi tukli va mevasi silliq yoki tuksiz shaftoli. Uning 5000 ga yaqin navi mavjud va hozirgi kunda ham uning yangi navlari ustida ishlar ketmoqda.

Shaftoli issiqsevar o‘simglik bo‘lgani uchun bo‘g‘ barpo qilishda uni bu ko‘rsatgichi hisobga olinishi kerak. Sovuq shamollar esib turadigan joylarga ekish tavsiya etilmaydi. Qish qattiq keladigan yillarda bunday joylarga ekilgan daraxtlar nobud bo‘lishi va yoki bahorda gul kurtaklari zararlanishi mumkin. Shaftoli uchun tuproq muhiti yani pH 6-6.5 maqbul hisoblanadi. Yaxshi suv o‘tkazadigan tuproqlarda daraxt rivojlanishi jadal kechadi aksincha suv o‘tkazuvchanligi yomon tuproqlarda o‘sish va rivojlanish to‘xtaydi. Sho‘rlangan tuproqlarga ham ekish tavsiya etilmaydi. Lekin sizot suvlari yaqin 1.5-2 m bo‘lgan joylarda yaxshi o‘sadi.

Ekish sxemasiga ko‘ra 5x3, 5x4 va 3x6 metrda ekiladi. Ekish sxemasi shakl berish turiga qarab ham tanlanadi. Sog‘lom, yuqori sifatlari, standart talablariga javob beradigan ko‘chatlar daraxtlarning yaxshi o‘sishini va yuqori hosildorligini ta’minlaydi. Ko‘chatlar kuzda, barglar to‘kilganidan so‘ng kovlab olinadi. Standart

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

ko'chatlarga balandligi 50-60 sm bo'lgan joyidan kesilib shakl berilgan, diametri 2-2,5 sm dan va asosiy shoxlari uzunligi 50-60 sm dan kam bo'lmanan ko'chatlarni kiritish mumkin. Kovlab olingan ko'chatlar ko'mib qo'yilib, tuproq bilan zichlanadi va sug'oriladi. Shaftoli ko'chatlarini ekishga tayyorlashda, avvalo, yer maydonida suvning yurishi hisobga olinib, yer yaxshi tekislanadi. Plantajli plugda ag'darib haydaladi. Haydash oldidan gektariga 30-40 t. go'ng, 120-150 kg. Hisobida fosforli o'g'it solinadi. Shaftoli bog'i barpo qilish rejlashtirilgan tuproq iqlim sharoitiga mos serhosil, istiqbolli navlar tanlab olinadi va ekiladi.

Quyoshga bo'lgan talabidan kelib chiqib "vazasimon" yoki "kosasimon" shakl berish shaftoli daraxti uchun maqbul shakl hisoblanadi. Shaftoli bir yillik shoxlaridan meva berishini hisobga olib har yili unim davrida va qisman yozgi butash ishlari ham amalga oshiriladi. Shaftoli bog'iga yoz maysumida shakl berishdan maqsad kuchli o'sish suratini sekinlashtirib, xosildorlikni oshirish. Yozgi shakl berishda eng qulay muddat iyun oy hisoblanadi. Yozgi shakl berishda daraxt markazidan kuchli o'sgan va bir-biriga raqobat qiluvchi hamda egilgan novdalar kesib tashlanadi. Ushbu kesish jarayonidan so'ng daraxt novdalariga va barglariiga quyosh nuri bin me'yorda tushishi ta'minlanadi.

Shaftoli mevalarini terish jarayoni mevalarni yaxshi samarali tashish ko'zda tutiladi, mevalar sifatiga zarar yetkazadigan ortiqcha ishlarni kamaytirishi kerak. Meva qanchalik kam ushlanib tez qadoqlansa uning sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Bog'bonlar terim jarayonida zarur bo'ladigan barcha ish anjomlarini tayyor holatga keltirishi zarur. Bunda terim savatlari yoki xaltalari, narvonlar, hosilni tashish aravachalari, navlarga ajratuvchi stollar, tarozilar, qadoqlash materiallari va boshqalar. Ushbu ish anjomlarini oldindan tayyorlab qo'yish hosil terimi samaradorligini oshiradi. Yelkaga osiladigan tasmaga ega terim savatlari yoki xaltalari teruvchilar ishim osonlashtirib, narvonda ishlash xavfini kamaytiradi. Hosilni tashish aravachalari yoki boshqa transport vositalari uzilgan mevalarni qadoqlash joyig' tez yetkazishda foydalidir. Navlarga ajratuvchi stollar mevalar- ni tartibli ravishda turli navlarga bo'lish imkonini beradi. Hosil terish davomida ish barcha bosqichlarda bir maromda borishi lozim. Shaftoli mevalari sifati tez buzilishini inobatga olib, ularni terishda ustma-ust joylashtirish tavsiya etilmaydi. Mevalar bir qator qilib yashiklarga terilsa, ularning saqlanuvchanligi oshadi. Terimchilar qo'liga qo'lqop kiyishi zararni kamaytiradi.

Shaftoli daraxtlari azotga boy bo'lgan tuproqlarda yaxshi rivojlanadi va ularga birinchi galda talab qilinadigan ozuqaviy moddalar qatoriga azot, kalsiy, fosfor, magniy va kaliy kabi elementlar kiradi. Shaftoli azotga talabchan. Karbamid, ammoniy nitrat va sulfat ammoniy almashlab qo'llanilsa shaftoli yaxshi rivojlanadi. Shaftoli bog'iga uch yilda bir marta gektariga 30 t go'ng solish hosildorlikni oshiradi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

1 ga shaftoli bog‘iga 120-130 kg azot, 60 kg fosfor, 30 kg kaliy ta’sir qiluvchi modda hisobida solish tavsiya etiladi.

Shaftoliga bahorgi nam ob havo ta’sirida turli zamburug‘li kasalliklar zarar berishi mumkin. Tinim davrida 3%li “bordo suyuqligi” bilan ishlov berish yaxshi natija beradi. Gullashdan keyingi fazalarda monilioz, klyasterosporioz kabi kasalliklarga qarshi fungitsidlar bilan ishlov beriladi. Asosan yomg‘irdan keyin ishlov berish yaxshi natija ko‘rsatadi.

Shaftoliga turli kasalliklardan tashqari daraxti va mevasiga turli zararkunandalar zarar beradi. Asosan sharq mevaxo‘ri, shiralar, qalqondorlar kanalar va tripslar. Bularga qarshi kurashda uyg‘unlashgan usuldan foydalanib qarshi kurashilsa yaxshi natija beradi. Zararkunandalarni ko‘payish muddati oldi oldidan insektidsidlar qo’llanilsa zarar kamayadi. Bundan tashqari meva terim vaqtida insektidsidlar qo’llash tavsiya etilmaydi. Sababi meva tarkibiga zaharli moddalar shimalishi va insonlarga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Insektidsidlar qo’llashda ularning yo‘riqnomalariga amal qilish lozim.

Mevalari pishish davriga qarab ertangi, kechki va o‘rtangi navtarga ajraladi. Erta pishadigan navlar mevalari may oyi oxiri, iyun oyi boshlaridan pishib yetiladi.

Shaftolining suvea bo‘lgan talabchanligi yuqori, lekin tuproq uzoq nam holda turishi ham ildizlariga zarar keltiradi. Shaftoli daraxti suv yetishmaslik holatida ham meva berishi mumkin, lekin mevalari mayda bo‘lib qoladi. Sug‘orish miqdori tuproq sharoitiga va bog‘larning yoshiga bog‘liq. Qishda yaxob suvi berish yaxshi natija beradi. Bu usulda sug‘orilganda tuproqda namlik saqlanib o‘suv davrida suvga bo‘lgan talab qondirilib suv ham tejaladi.

Bo‘z tuproqlarda shaftoli daraxtlari o’sish davri mobaynida 4-6 marta, shag‘alli yerlarda 10-12 mavotaba sug‘oriladi. 1,5-2,0 ming m³/ga miqdorda ikki marta qishki zaxira suv berilishi shart. Nam yaxshi saqlanadigan maydonlarda mevali daraxtlar 7-8 marta (450-500 m³/ga sug‘orish miqdorda), toshloq yerlarda 10-12 marta (250-300 m³ sug‘orish miqdorda) sug‘orish zarur. Ko‘llatik sug‘orish tavsiya etilmaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadiga bo‘lsak mamlakatimizda yetishiriladigan shaftoli bog‘larini sug‘orishda tuproq sharoitidan kelib chiqqan holda va navning biologik ko‘rsatkichlaridan kelib chiqqan holda sug‘orish yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ribakov A.A, Ostrouxova S.A – O‘zbekiston mevachaligi. T.,1981
2. Abdullaev R.M., Isroilov M.M. - Shaftoli yetishtirish. T., 2021.
3. Mirzaev M.M., M.Q. Sobirov - Bog‘dorchilik., T., 1987.
4. Mirzaev M.M., M.Q. Sobirov -O‘zbekistonda bog‘dorchilik., T., 1980.
5. Botirov, A., & Arakawa, O. (2022). THE INTERACTION OF ROOTSTOCKS, WATER AND SOIL HUMECTANTS AND YOUNG APPLE TREE GROWTH. Academic research in educational sciences, 3(Special Issue 1), 43-56.
6. Alisher Botirov, Baxodir Ochilov, & Furqat Hasanova (2022). ILMIY-TAJRIBA STANSIYASINING SO‘NGI YILLARDAGI STATISTIK KUZATUVLARI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (2), 202-207.
7. Alisher Erkinovich Botirov, Ulug‘bek Matniyozovich Boyjonov, Gulrabo Abdullaeva Rustamova, & Norqul Murodillo O‘g‘li Quysimooev (2022). SHAFTOLINING TURLI NAVLARINI KASALLIK ZARARKUNANDALARGA QARShI CHIDAMLLIGINI O‘RGANISHNING ILMIY ASOSLARI. Academic research in educational sciences, 3 (7), 176-182.